

DILOROM TURSUNOVA

*MEN  
BAXTLI  
BO'LAMAN*

She'rlar



DILOROM TURSUNOVA

**MEN BAXTLI BO‘LAMAN**

She‘rlar

Toshkent – 2023

*Dilorom Tursunova. MEN BAXTLI BO'LAMAN. She'rlar. T.: 2023. TDSHU.*

**Mas'ul muharrir:**

***Muhammad Ali***  
*O'zbekiston xalq yozuvchisi*

**Taqrizchi:**

***Adhambek Alimbekov***  
*F.f.n., professor*

**©Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. 2023-y.**

## **SHE'R QUVONCHI**

Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti qoshidagi “Mangu bitik” ijodiy to‘garagida istedadli yoshlar ijod sirlarini o‘rganishadi. Choriyor Berdiev, Zarnigor Shermatova, Vazida, Nodirjon Ne‘matov, Sarvarjon O‘rolov, Bobomurod Safarov, Lola Arslonova kabi va boshqa ko‘p yosh ijodkorlar ana shular jumlasidandir.

Dilorom Tursunova mazkur to‘garak a‘zolaridan biri. U to‘garak majlislarida faol qatnashadi. “Men baxtli bo‘laman” deb nomlangan ilk kitobida yosh umidli shoironing yarq etgan she‘rlaridan namunalar kiritilgan.

Odatda, she‘rlar o‘qilganda “yurakdan yozilgan” degan so‘zlarni ko‘p eshitamiz. Bu holda shoir butkul yuragini ochib, ya‘ni hech qanday sirni o‘quvchidan yashirmay she‘rida aks etdiradi, uning bilan baham ko‘radi. Bu she‘riyatning asil yo‘li. Natijada she‘rda samimiyat paydo bo‘ladi, u she‘rlarni ich-ichidan nurlantiradi. O‘quvchiga esa hamisha nur kerak.

Diloromning she‘rlarida ana shunday fazilat bor. U samimiy she‘rlar bitadi, o‘zining mashqlarida ko‘nglidagi quvonchini, dardini, alamini aks ettiradi. Boshqacha aytsak, hech kimga aytmaydigan sirlarini bemalol o‘quvchiga aytib, hamdardlashadi, ko‘nglini yozadi.

Diloromda she‘riy iste‘dod bor. Biroq buni yuzaga chiqarish uchun shoira hali ko‘p ishlashi, ter to‘kishi va o‘qib-o‘rganishi kerak. Ko‘p mutolaa qilmoq zarur. Shoir va adib, birinchi galda, o‘quvchi ekanini yodda tutmog‘i shart. Chunki, ijod – yozish emas, o‘qishdir. Badiiyat sirlarini egallash, she‘r texnikasini chuqur o‘rganish ijodkor uchun hamisha dolzarb bo‘lib qolaverishini unutmazlik lozim.

Dilorom Tursunovaning “Men baxtli bo‘laman” she‘riy to‘plami o‘quvchilarimizga manzur bo‘ladi, degan umiddaman.

Muhammad Ali  
O‘zbekiston xalq yozuvchisi



## **O'zbekistonim**

Sen mening onamsan, boshimda tojim,  
Yursam, chinorlardek soyabon bo'lding.

Dunyoni hayratda qoldirib bugun,  
Dunyoning ichida bir jahon bo'lding.

Bag'ringda ulg'aydi, ne-ne buyuklar,  
O'zga yurt bolasin, o'z bolam deding.  
Gar ostona hatlab mehmoning kelsa,  
Borini mehmonga berguvchi eding.

O'zga yurtlar seni ketsin bir ko'rib,  
"O'tgan kunlar"ingni tarixin bilsin.  
Kecha kim edik-u, bugun kim bo'ldik,  
O'zbek mardligiga ta'zimlar qilsin.

Sen mening bog'imsan, gullaring go'zal,  
Ta'rifga til ojiz yolg'iz bo'stonim.  
O'zbekliging senga otadan meros  
Serquyoshim, jonim, O'zbekistonim!



## **Shukrona**

Tinch osuda yurtda yashab, o'ynab-kulib,  
Bitmoqdaman quvonchimdan she'r-u g'azal  
Armonlarni bir chekkaga qo'ygin, do'stim,  
Orzu bilan boq hayotga: qanday go'zal!

Mehr bersang, mehribonlar bisyor erur,  
Qahri qattiq insonlarni hayot ezar.  
Qalbingni och, sen dunyodan yaxshilik kut,  
Yaxshilik bu- toshlarni ham guldek bezar.

Yurt otasi sendan har vaqt rozi bo'lsin,  
Bolam deya erta-yu kech senga kuyar.  
Ota-onang Hajga borib, hoji bo'lsin  
Qirqingda ham, to'rt yoshlikdek, seni suyar.

Hayot go'zal, orzularing keng uchadi,  
Qayga borsang, qarshi olar bog'-u bo'ston,  
Yurt bayrog'in yuksaklarga ko'tar, do'stim,  
Biznikidir, jannatmakon O'zbekiston!



## **Ona tilim**

Dunyoda men uchun, aziz mo'tabar  
Biri onam bo'lsa, biri Vatanim.  
Bordir quyosh kabi, tanho va yolg'iz  
Gulday ona tilim, go'zal chamanim.

Sen-la mir Alisher "Xamsa"sin bitmish,  
Bobur fig'onlari olamni tutmish  
Devonini jamlab, ul Mahmud Koshg'ar  
O'z ona tilini tinmay madh etmish.

Barcha uchun aziz qadrli o'zing,  
Taniga jon bo'lgan jondosh so'zisan.  
O'zga yurtda yurgan vatandoshlarning  
Qalbini anglagan yolg'iz o'zingsan.

Millatning g'ururi, shon-u shavkati  
Doim yashnab turgan go'zal gulimsan,  
Onam allalarin sen-ku bezatgan,  
Hayotim mazmuni Ona tilimsan!



## **Bir kun**

Men bir kun baxtlidan baxtli bo'laman,  
Ko'zlarimdan quvonch yoshlari oqar.  
Bir zamonlar meni ko'rolmaganlar  
Ortimdan tikilib lol, hayron boqar.

Men bir kun baxtlidan baxtli bo'laman,  
She'rim qalblar torin chertibon o'tar.  
Qadrim bilmay pisand etmagan kaslar  
O'sha kun yo'limni zor-intiq kutar.

Men bir kun baxtlidan baxtli bo'laman,  
Otam, onam mendan rozi bo'ladi.  
Baxt-u kamolimni ko'rib, quvonib  
Yuz emas, minglarga qadam qo'yadi!

Men bir kun baxtlidan baxtli bo'laman,  
Har inson she'rimni suyib o'qiydi.  
O'zim emas, xalqim dardin kuylayman,  
She'ru mehrim Vatan uzra balqiydi!





\*\*\*

...Bandasi arzimas sevgimga,  
Insonlar chang soldi ko'nglimga.  
Armonlar toshirmang dilimga,  
Men faqat Allohni sevarman!

Do'stlarim yondirgan kunlarda,  
Armonli uyqusiz tunlarda,  
Kuz chog'i yomg'irli tonglarda  
Men faqat Allohni sevarman!

Qovrildim xiyonat yog'ida,  
Ham kuydim muhabbat dog'ida,  
Sevgi ne bilmadim chog'ida,  
Men faqat Allohni sevarman!

Bahorda ochilsa lolalar,  
Ularni bag'ringa bosganman,  
Kerakmas, atirgul tutgan yor,  
Men faqat Allohni sevarman!



## **Sinfdoşlarim**

Sizdan uzoqlarda yuribman bu kun,  
To'kilib tuganmas ko'zda yoshlarim,  
Unutib yubormang, men unutmadim  
Meni eslab turing, sinfdoshlarim!

Sizsiz yashamoqlik oson emas, rost,  
O'ylab og'rimoqda tun-kun boshlarim,  
Men sizdan kechmayman, kecholmayman ham,  
Meni eslab turing, sinfdoshlarim!

Yoningizga har dam bormoq istar dil,  
Bolalik chog'imda chin tengdoshlarim.  
Siz ham meni eslab, sog'inyapsizmi?  
Ey dardli darddoshim - sinfdoshlarim!

Og'a-inim kabi menga mehribon,  
Opam, akam, singlim siz sirdoshlarim,  
Goh bilmay ranjitgan bo'lsam ko'nglingiz,  
Gunohimdan o'ting, sinfdoshlarim!

Xayoldan hech ketmas nigohlaringiz,  
Sizlarni o'ylayman, qayg'udoshlarim!  
Baxt omad zafarlar yor bo'lsin har vaqt,  
Sog'- salomat bo'ling, sinfdoshlarim!



## **Qog'oz ila she'r**

Chaqaloq dunyoga kelgan kabi pok,  
Sokin, lek dillarni shodon etgan soz,  
Senga neki yozsam taqdirimda bor,  
Oppoq paxta kabi beg'ubor, qog'oz.

Men bir dehqon bo'lsam, sen-chi? Ona Yer,  
Senga nima eksam shuni o'raman.  
Qadam bosilmagan yo'llar kabi sen,  
Men-chi, taqdir bosgan yo'ldan yuraman.

Sen mening quyoshim charaqlab turgan,  
Men seni asrasam doim porlaysan,  
Kuzda yomg'irlardan asrasang o'zni,  
Bahorda sen meni yana chorlaysan.

Seni asramoqlik mening qo'limda,  
Sen mening umrimning bo'lak, parchasi.  
Bilmay xato qilsam o'tda yonasan,  
Sen - qalbim, sengadir mehrim barchasi.



## Ota

Ota, qalbingizda ne bor, bilaman,  
Siz meni o'ylaysiz necha bor yonib,  
Har bir qo'ng'iroqda so'zlaysiz qalbdan,  
Sizdan yiroqligim haqda to'lg'onib.

Hayot chizib berdi bugun yo'limni,  
Bu yo'lda qiynalib, ba'zan tolaman.  
Men ancha ulg'aydim, ammo, otajon,  
Siz uchun arg'imchoq uchgan bolaman.

Ulg'aydim men bugun sizdan olisda,  
Yaxshi-yu, yomonni farqlay olurman.  
Hayotda ne ko'rsam, jim turib hamon,  
Barcha ko'rganimni she'rga solurman.

Xafa bo'lmang mendan, o'tinmang sira,  
Nega u armonni shior qildi deb,  
She'ridan biri ham menga atalmas,  
She'r yozmay, dilimga ozor qildi deb.

Qizim deysiz, ba'zan erkalab onam,  
Sizga rahmatlarim cheksizdir, ota!  
O't tushsa kul bo'lgan qog'ozga emas,  
Mehringiz qalbimga yozganman, ota!



## **Allohim yig'latma...**

Dushmanlar qahridan azob chekmasin,  
Mehr ila siyla, mehribonimni.  
Quyoshdek porlasin shodon kunlarda  
Allohim, yig'latma onajonimni...

Farzandlar rohatin ko'rib quvnasin,  
Azobga tashlama jonajonimni,  
Yetar balki shuncha sinaganlaring,  
Allohim, yig'latma onajonimni...

Biz uchun erta-kech yelib yugurgan,  
Shamoldek tinmagan nur-jahonimni,  
Barcha farzandlarin jonidan suygan  
Allohim, asragin otajonimni!..



## **Onam**

Uzoqdaman sendan, uzoqda  
Menga darddosh birgina xonam.  
Tushlarimda sirdoshim o'zing  
Seni yana sog'indim, onam...

Yurak so'zim o'zga anglamas  
Ichimda jim mungsirar nolam,  
Ko'zni yumsam sen bilan bo'lsam,  
Seni juda sog'indim, onam...



## **Iqror**

Men qanday qiz bo'ldim, onajon,  
Hech koringga yarolmaydurman.  
Sog'ligingdan, hol ahvolingdan  
Bir bor xabar ololmaydurman.

Men qanday qiz bo'ldim, otajon,  
Boru yo'g'ing ko'klarga sochgan,  
Obro' deya, e'tibor deya,  
Quchog'ingdan olisga qochgan!

Men qanday qiz bo'ldim, onajon,  
Haqiqatgo'y, adolat talab.  
Ikki yuzli ekan insonlar,  
Jim qolaman, ularga qarab.

Men qanday qiz bo'ldim, otajon,  
Qahri qattiq, lek ko'ngli yarim,  
Kimga yaxshi, kimga yomonman,  
Kimlargadir berarman borim.

Ha, shunday qiz bo'ldim, ne qilay,  
Hayot meni sinab tolmedi,  
Otam-onam yaqinlarimdan,  
O'zgasiga ishonch qolmedi!



\*\*\*

Ko'zlarimdan ko'z yoshlarim tinmayapti,  
Hayot bizga sinov berib tolmas ekan!  
Barchasiga chidayman men deysan, ammo,  
Yurak dardga sabr qila olmas ekan.

Do'st-u, yorlar yonginangda mehribondek  
Yuzing bursang, g'iybatingni qilar ekan.  
Dushman turib, do'stlaringdan pand yesang gar,  
Chin dunyolar yolg'on bo'lib qolar ekan.

Oq-u qora rangdan barpo bo'lgan hayot,  
Rassom unga boshqa jilo bermas ekan.  
Mana bugun barchasini bildim, ona,  
Hech bir inson o'rningizni bosmas ekan.





## **Do'st kechib ketsa**

O'ramizda ko'pdir do'st-u, dushmanlar  
Yoningda kim qolar  
Bir shamol yelsa?  
Qalbingda ketmas dog' bo'lib qolarkan  
Eng yaqin do'stlaring tark etib ketsa.

Ishonib qalbingni bergudek sevsang,  
Fikr-u, xayolingni bir unga bersang,  
Qadrdonim deya qalbingdan kuysang  
Yurak yonar ekan, tark etib ketsa...

Go'yo u begona, seni o'ylamas,  
Senga deb bir bora so'zlar so'ylamas.  
Hatto holing ne deb bir bor so'ramas,  
Sezmay qolarkansan, jim kulib ketsa.

Do'stmiz deb, tuzilgan axdlarni buzib,  
Ismingni ustiga chiziqlar chizib  
Hatto salomingdan qolarkan bezib,  
Senga begonadek tark etib ketsa.

Yangi do'stlarini qo'lidan tutib  
Sen uchun ayriliq satrini bitib,  
O'zgani-ku qo'ygin....  
O'zidan ketib,  
O't yoqib ketarkan, do'st kechib ketsa.



\*\*\*

Men seni sevaman deganning,  
Sevgisin nazarga ilmadim.  
Meni xursand etmoq istasa,  
Yig'ladim, yig'ladim, kulmadim.

### **Ishonmadim muhabbatga men**

Balki xato qildim, bilmadim.  
Meni sevgan "yor"lar ko'p edi,  
Lek ulardan birin sevmadim.

Xato dedim, sevgini xato,  
Sevgi ila yashab ko'rmadim,  
Sevdim, otam birla onamni  
Lek vafosiz yorni sevmadim.

Men yig'lasam onam boshimda,  
Sochim silar mudom qo'llari,  
Gar qoqilsam otam yonimda  
Oro berar oftob nurlari.



## **Soxta do'stlar**

Dard-u alamlardan to'lgan yuragim,  
Zulmatli kunlardan yig'layotgandi.  
Tongda derazadan boqsam oppoq kun  
Kumush qor guppillab yog'ayotgandi.

Ko'chaga otildim dardim sochmoqqa  
Yuragim qorlarga ko'mib tashladim,  
Yolg'onchi do'stlardan yaxshiroqdir deb,  
Bir sirdosh qorbobo yasay boshladim.

To'gri, u eriydi tunga yetmasdan,  
Ammo u tungacha yonimda bo'lsin,  
Men soxta do'stlardan hech arz qilmayman,  
Ularga bahoni Allohim bersin...



\*\*\*

Sevgi-yu muhabbat menga begona,  
Ha, men dunyolardan begona dilman.  
Aqlim yuragimning so'zin ilmagan,  
Siz ne deb o'ylaysiz aslida kimman?..

Do'stlardan mehrni axtarib, tonib,  
Dushmanga dardini so'zlagan tilman.  
Qadrdonim faqat otam va onam  
Yolg'iz ular uchun yagona dilman...



## **Yo'qotganlarim**

“Beshikning oldidan tobutgacha yo'l”  
Achchiq haqiqatga chidaymiz, afsus,  
Ketmoqdasiz biroq, ko'tarmaysiz qo'l  
Bir o'lim haq ekan, boshqasi haqsiz.

Unutib bo'lmaydi, unutilmaysiz,  
Qalbimning tubida yashaysiz har on,  
Men taslim bo'lmayman, yig'lamayman, yo'q,  
Biroq meni tashlab ketganiz yomon.

Ko'z ochib yumguncha o'tarkan umr,  
Boshingizda yig'lab so'z qotganlarim.  
Joyingiz jannatdan qilsin, Allohim,  
Nafasdek umrda yo'qotganlarim.



## **Vaqt**

Soatlar yurmaydi, chiq-chiq etadi,  
Umrimiz soy kabi oqib ketadi,  
Bir zum sukunatga cho'ming va o'ylang,  
Bizlarni tashlab vaqt qayga ketadi?

Oqibat yo'l olgan, vaqtning ortidan,  
Hech kim bir-biriga suyanmay qo'ydi,  
Ota-onadan bir xabar ham olmay,  
Farzandlar nodonlik libosin kiydi.

Sevgi- sadoqat ham ketmoqda uchib,  
Oshiqlar bir-birin begona bildi,  
Biz bilgan Otabek, Kumushlar qani?  
Sevgini bevafo yorlar xor qildi.

Bugun xiyonatni sadoqat bilgan,  
Bir emas, yuztasin sevganni ko'ring,  
Duch kelgan insonga ishonmang, do'stlar,  
Faqat o'zingizni chin dildan seving.

Borida qadriga yeting Onangiz,  
Axir umr bir zum o'tib ketadi,  
Sizni deb jon berar faqat Otangiz,  
Soxta o'rtoqlariz tashlab ketadi....



## **Boshim egib...**

Dunyoga kelgan chog' olamni ko'rib,  
Insonni samimiy mehribon bildim,  
Kimlardir ko'nghimni og'ritib qo'ysa,  
Gunoh deb o'zimga ta'nalar qildim.

Muhabbat bog'ida nelar bor ekan,  
O'sha bog'ga bir bor kirib ham ko'rdim,  
Bog'dagi ul gullar tikanlar ekan,  
Tikanni gul bilib adashib yurdim...



## **Sevgi...**

Bu so'zga men mahliyo bo'lib,  
Sevgimga arzimas insonni sevdim.  
Necha bor u meni o'tga tashladi,  
Boshim egib, hayot shu ekan dedim.

Do'stlarim yuragim sotib ketganda,  
Xatto xiyonatdan ko'zimni yumdim,  
Qalbim, sen Allohga ishon, deganda  
Boshim egib, hayot shu ekan dedim...

She'rlar yozaverdim, o'z olamimda,  
Shoirlar olamin boshqacha bildim,  
Birgina she'rlarim do'st ekan menga,  
Shunga ham ming bora shukrlar qildim...

Yerni o'p, deyishdi boshimdan tepib,  
Men osmondan yulduz izlagan edim,  
Yulduzlar ham mening dardim bilmadi,  
Boshim egib, hayot shu ekan dedim.

Qoqildim men yo'lda ketar chog'imda,  
Tevarak atrofda hech kim yo'q edi,  
Ko'zlarimni ochsam, otam va onam  
Yig'lama axir bu hayot-da, dedi.

Ollohga ming bora shukrlar qildim  
Yolg'on dunyolari shu ekan, dedim...





## **Yolg'on dunyo**

Yolg'on dunyo, shohlar uchun qasr bo'ldi,  
Kimlar uning boyligiga asir bo'ldi.  
Yana kimlar yonmoqdalar dod-voy solib,  
Ba'zilar yoshin artib, soxta kuldi.

Yolg'on dunyo, sevgiga bir sahna bo'ldi,  
Xiyonatlar muhabbatni vayron qildi,  
Kim istardi baxt o'rniga armonlarni,  
Nahot sevgi biz uchun bir tikon bo'ldi?

Haqqimiz yo'q bu dunyodan tonmoqlikka,  
Alloh jonni berdimikan yonmoqlikka?



## **Bir kuni**

Bir kuni, kuz ketar, xazonin olib,  
Bahor mening uchun yozar poyondo,  
Shuncha chekkan dard-u, sitamlardan so'ng,  
Ul kun baxtdan quvnab yonishlarim rost!

Qo'llarimda gullar, bog'da sayr etib,  
Xushbo'y havosidan sarmast bo'laman.  
Osmonga boqsam gar, quyosh yalt etib,  
Yuzimga nur sochar, xushnud kulaman.

Uzoqdan ko'z tashlab kapalaklarim  
Men tomon oshiqib ucharlar,  
Boshimda aylanib, kaftimga qo'nib,  
Barmoqlarim uzra raqs tusharlar.

Erta tong saharda, kelar o'sha kun,  
Olib qalbdan dardim, neki tuyaman,  
Kuzning, xazon to'la xaltalariga  
Sezdirmay ohista solib qo'yaman.



## **Shoir qalbi**

Yigit sevgisini tashlab ketarkan,  
Qiz bechora yig'lab faryod soladi.  
U bilan o'tkazgan shu gul umriga,  
Ming bora afsuslar aytib qoladi.

Yigitga boqadi yuragi to'lib,  
Unutolmay uni yonib kuyadi.  
Nima qilsin, deysiz qiz ham bechora,  
Azoblar bag'rini ezib qo'yadi.

Ko'rgisi keladi sog'inib har on,  
Alamin she'r yozib, she'rdan oladi.  
Bevafo kelmaydi uni axtarib,  
Ammo shoir qalbi yo'lda qoladi.

Balki boshqa qizni topar o'ziga,  
Ne qilar, sirini ammo aytmaydi.  
Sog'insa ham yonib azob yutsa ham,  
Afsuski, sevgani endi qaytmaydi.



## **Boshqani sevmadim, seni unutdim**

Menga beparvodir ko'zlaring, dema,  
Bir bor sevgimizdan so'zlagin, dema.  
Armonga aylangan muhabbatimiz  
Orzu ham qilma hech, g'amimni yema...

Nima topdi qalbim senga ishonib  
Yuragim sen uchun urib ne qildi?  
O'zga gullar bilan yuraver endi  
Kim qanday ekani afsus bilindi.

Ayblama sen bugun o'zgaribsan deb,  
Shunchaki tan berdim, oxir ko'nikdim.  
O'ylama, u boshqa dillar bilan deb,  
Boshqani sevmadim, seni unutdim....



## **Kuz kelgach**

Kuz kelgach sarg'ayib qolgan maysadek,  
Ketyapman ortimdan ma'yus boqasan.

Umring sarhisobin sabodan so'ra!  
Endi chin sevgini qaydan topasan?

Men olib ketyapman halovatingni,  
Bir qora tundeksan, kimga yoqasan?  
Menga kechir dema, kechirolmayman,  
Bir sotding sevgimni, yana sotasan.

Ortimdan shamoldek yurmagin, yetar!  
O'tmishga qaytmayman, kelmaydi qaytgum.  
Gar sen uchrab qolsang bexos yo'limdan,  
"Vaqtida ayrildik, yetar" deb aytgum...



\*\*\*

Tor kabi nozikdir mening bu ko'nglim,  
Gar teksang, qizg'aldoq kabi to'kilar,  
Qalbimga tun kabi bo'lmagin zulmat  
Quyosh ham mehr ila muzni eritar.

Sevgi muhabbatni qilsang baxshida  
Men ham butun umr sevaman seni,  
Ammo bahor kabi sen ketib qolsang,  
Gul yemas xazonlar erkalar meni.

Atirgul go'zaldir ammo tikanli  
Bilginki, men seni guling bo'larman,  
Bir kun tikanlarim sanchsam beayov,  
Bir kuni dardingga davo bo'larman.

Yer aylana erur qay-ni desang, bor,  
Ko'zguga qarasang o'zni ko'rasan,  
Mehr urug'idan ko'proq eksang yor  
Shunda vaqti kelgach mehr o'rasan...



## **Yurak seni intizor kutdi**

Balki xayolingdan ketganman o'chib,  
Meni bir bora ham eslamay qo'yding.  
Senga mehr berdim, mehribonim deb,  
Nahot yuz o'girding, bag'rimni o'yding?

Oradan fasllar o'tdi birma- bir  
Ko'nglimdan nimalar o'tdi - bilmading.  
Hattoki bevafo bahorlar qaytdi,  
Holim so'ragani bir bor kelmading.

Kunduzlar ko'zlarim kulib quvonib,  
Tunda qalbim yonib alamlar yutdi,  
O'zgalar o'rningni bosa olmadi,  
Yurak faqat seni intizor kutdi.



\*\*\*

Qalbim so'lmog'dasan bugun gul kabi  
Oqibat izlab sen kimdan o'ch olding?  
Sevgilim, yagonam muhabbatim deb,  
Razil kimsalarga nechun ishonding...

Xanjar urib ketdi yuragingga u,  
Tuhmat-u nadomat ila jim qolding  
Hali ko'p afsuslar birla yonarsan,  
Razil kimsalarga nechun ishonding...





## **Maktub**

Sendan qolgan bir maktubni, ko'zlarimga suraman,  
Yig'lab-yig'lab maktubingni yuragimga qo'yaman.  
Sog'inaman har lahzada sening qarashlaringni,  
Uzoqlardan ko'rganingda holim so'rashlaringni.

O'shal maktub yuragimga xanjar bo'lib urilar,  
Sensiz o'tgan bu kunlarim jahannamdek ko'rinar.  
Ishon ahir, sen bo'lmasang bu dunyoda kuyaman,  
Sen kabi, men boshqasini, aytgin, qanday suyaman?



\*\*\*

Bugun seni eslagan yuragimni qarg'ayman,  
Xotiralar yezgan qalb ahvolini so'rgayman,  
Sensiz qanday yashayman, ne qilaman, bilmayman?  
O'zgalar deb yashagan bevafo ni sevmayman.

Kutadirman yo'llarin, kelsa xursand bo'larman  
Kelib bir bor hol so'rsa, boshim ko'kka qo'yarman.  
Lek endi meni sevmas, buni yaxshi bilarman,  
O'zgalar deb yashagan bevafo ni sevmayman.

Uni deb ado bo'ldim, sochlarim ham oqardi,  
Avvallar o'z gagamas, faqat menga boqardi,  
Begonani sevsas, bas, quvongayman, kuymayman,  
O'zgalar deb yashagan bevafo ni sevmayman.



## **Unutolmadim**

Men oshiq bo'lmadim boshqalarga hech,  
Senga qaragandek qaray olmadim,  
Bir so'z eshitmadim ulardan, biroq  
Ularga, sen kabi ishonolmadim.

Ular mehr bersa sendan-da ko'proq,  
Lek sendan ko'nglimni uza olmadim.  
Necha bor axd qildim sendan kechay deb,  
Axdlarim buzildi, kecha olmadim.

Necha yillar o'tdi oradan bugun,  
Qalbimni senga hech yora bilmadim,  
Gar o'zgaga boqsang, arazladim men,  
Sevaman, deyishga jur'at qilmadim...

Sen mendan kechgan kun yig'ladim uzoq,  
Hatto senga bir so'z deya olmadim.  
Har bir so'zlaringni tingladim uzoq.  
Bugun u so'zlarni unutolmadim.



## **Ba'zan**

Ba'zan uzoqlarga olib ketadi  
Men o'ylab netmagan so'ngsiz o'ylarim,  
Bir zum xayolimda nelar kechmadi,  
Erta tongdan yana seni o'yladim!

Bahor chog'i erdi, osmon bulutli,  
Ba'zan, yomg'irlarda chayardim yuzni.  
Sen yonimda eding har daqiqada,  
Baxtiyor sezardim hamisha o'zni.

Sog'inib men senga she'rlarni bitsam,  
Sen esa boshqalar yo'lini kutding.  
Xotiralar birla qoldim men yolg'iz,  
Bugunchi o'zgalar qo'lini tutding

Ba'zan uzoqlarga olib ketadi  
Men o'ylab yetmagan so'ngsiz o'ylarim.  
Nega, nima uchun juft qush bo'lmadik?  
Ushbu savol meni hech tinch qo'ymadi...

Bir zum xayolimda nelar kechmadi  
Erta tongdan yana seni o'yladim!  
U-chi u ham meni bir bor o'ylarmi?  
Ushbu savol meni hech tinch qo'ymadi...



## **Ne uchun?**

Ne uchun yurakda dard-u alamlar?  
Gohida ko'ngilga qil ham sig'maydi.  
Ne uchun yashadim, ne uchun o'lay?  
Dardimni qalb bilar, yotlar bilmaydi...

Savollar qiynaydi erta-yu kechda  
Ko'nglim hamon bir kam, nechun to'lmaydi?  
Meni kim eshitar, kim tushunarkin?  
Dardimni qalb bilar, yotlar bilmaydi...

Birgina she'rlarim menga mehribon,  
Ular-men yig'lasam aslo kulmaydi.  
Dushmanlar izlarim hamon kuzatar,  
Dardimni qalb bilar, yotlar bilmaydi...

Sevgi haqda she'rlar yozmayman dedim,  
Lekin yozmasam ham umid sinmaydi  
Ne uchun sevildim, ne uchun sevdim  
Xiyonat qalbdadir, yotlar bilmaydi...



\*\*\*

Muhabbat qalbinga solib qo'ydi cho'g',  
Yondirdi, kuydirdi, hech tinch qo'ymadi.  
Men suydim yorimni jonimdan ortiq,  
Afsuski, bevafo meni suymadi....

Birda bor bo'ldiyu birda esa yo'q,  
Sevgini bir ertak, cho'pchak deb bildik.  
Biroq bizning sevgi ertak bo'lmadi,  
Ishq guli maqsadga yetolmay so'ldi...



## **Sen bir kun**

Sen bir kun yo'limdan chiqding sharpadek,  
Senga aytmoq uchun so'z topolmadim,  
Qachondir men seni sevgan edim lek,  
Bugun-chi yuzingga nazar solmadim.

Vujudim titramas yuragim befarq,  
Ko'zlarim ko'zingga bir bor boqmadi.  
Sevgi savdosida, sen epchil chiqding,  
Sevgimizni mening qalbim sotmadi...

Yuzlaringga sekin nazar tashlasam,  
Xiyonatda rangi somon bo'libdi,  
Endi afsusdasi ming bora yonib,  
Barg deya yashabsan, guling so'libdi.

Menga bir so'z dema, o'z holimga qo'y,  
Sevgi muhabbatlar o'tib ketadi.  
Bandasi-chun nechun men yonib netay?  
Ollohning sevgisi menga yetadi!



## **Senga aytadigan so'zim qolmadi**

Yana sen poyimga bosh urib kelding,  
Sevgi degan qalbing, nuchun to'lmadi?  
Endi kech, mendan ham, muhabbatdan ham,  
Senga aytadigan so'zim qolmadi!

Sevaman deb menga yolg'on so'zlama,  
Bu sevgi boshimga nelar solmadi,  
Bahor edim, ketding, kuz bo'lib kelding,  
Senga aytadigan so'zim qolmadi!





\*\*\*

Hayotim boshqacha shu kunda,  
Vaqt soyday oqib ketmoqda.  
Qadrdonlarimdan juda olisda  
Kunlarim tun misol o'tmoqda...

O'zimdand, o'zimni izlarman  
Quyoshim ko'rinmay botmoqda.  
Dardimni bir qalam bilardi,  
U ham qog'ozlarga sotmoqda...

Otam onam mendan olisda  
Sog'inchim kundan-kun ortmoqda.  
Bor edi mehribon sirdoshim,  
Yurak hamon unga tortmoqda...



## **Yetar**

Yetar endi, seni boshqa sevmayman,  
Keragidan ortiq sevdim, bo'lmadi.  
Sevgi, muhabbatim senga baxshida  
Ayladim, va lekin ko'ngling to'lmadi...

Yetar,

Yetar endi senga qaytmayman,  
Necha bor kechirdim, qalbing sezmani,  
Yuragim sevgi deb mudom talashar,  
Lek seni yuraging meni sevmadi...

Yetar endi, meni o'yin qilmagin,  
Men qo'g'irchoq emas, sen o'ynatgani.  
Meni ham qo'limdan kelar gar bilsang,  
O'ynab, o'ynab qalbing olib ketgani!



## **Kimni sevarding?**

Dunyoga takroran kelsang, azizim,  
Aylanib, aylanib kimni izlarding?  
Yo'lingda behosdan men uchrab qolsam,  
Meni sevmay yana kimni sevarding?

Ko'zlaringga boqsam, sevgilim deya,  
Yana ko'zlarimda o'zing ko'rarding.  
Jonimsan, yorimsan, muhabbatim deb,  
Izlab-izlab yana meni sevarding.

Boshqa yoronlarga ko'nmasdi diling,  
Boshqa go'zallarni demasdi diling,  
Faqat men tomonga uchardi ko'ngling,  
Meni sevmay, yana kimni sevarding?

Kuz kelgach, xazondek dardlarim bisyor,  
Sen kelsang bahordek shodon kulardim.  
Men ham yana kelsam dunyoga takror  
Yolg'izim, yagonam seni sevardim.



## **Xazon bo'lmay izg'irinda qolgan barglar**

Bahor chog'i go'zal bo'lib yashnar daraxt,  
Kuz kelganda to'kilajak barcha dardlar  
Yashil edi, sarg'aymagan, yer ko'rmagan  
Xazon bo'lmay izg'irinda qolgan barglar.

Qorlar yog'di to'kilmadi, yashil turdi  
Yuzlariga qo'ngan edi ne-ne gardlar  
Kuz chog'ida to'kilsa-chi bo'lmasmidi?  
Xazon bo'lmay izg'irinda qolgan barglar.

Qachongacha sevmaganni sevdiradi,  
Axir uni kutmoqda-ku o'zga mardlar.  
Qachongacha shu shoxda jon kuydiradi,  
Xazon bo'lmay izg'irinda qolgan barglar...



## **Tanho qolsam**

Tanho qolsam barchadan xoli  
Ko'zdan oqar achchiq yoshlarim,  
Nechun qalbni yozar yolg'izlik,  
Ba'zan og'rib ketar boshlarim...

Nechun yurak qip-qizil qondir,  
Lola kabi, teksang to'kilar,  
Inson umri oppoq qog'ozdir,  
Unga sening isming bitilar...



## **Inson tushunmaydi insonni**

Hayotingda insonlar bisyor  
Yaxshi kunda ular keladi,  
Yomon kunlar tushsa boshingga,  
Asta kulib yuzin buradi...

Muhabbatmi? Eh qo'ygin aytmay,  
Xiyonatlar bag'ring tiladi.  
Bandasini sevmagin ekan,  
Bunda yurak tamom bo'ladi.

Ota-ona g'animat ekan,  
Buni qirqdan o'tgan biladi,  
Qadrin bilmay xor qilsang agar,  
Afsuslaring qalbing tiladi...

Inson tushunmaydi insonni,  
Ba'zan hayvon senga kuyadi.  
Hatto mehr bersang itlarga,  
Oyog'ingga boshin qo'yadi...

G'iybatchimish haqgo'y shoirlar,  
Ular elning dardin biladi,  
Sen o'tinma, tuhmat dema hech,  
Shoir nohaqlikdan o'ladi...



## **Peshonada yozilgani bo'lar ekan**

Go'zal hayot kechirmoqni istar odam,  
Ammo ba'zan dil g'amlarga to'lar ekan.  
Xo'p yugurib, shamol kabi yelgin-u, lek  
Peshonaga yozilgani bo'lar ekan...

Goh taqdirdan qochmoq uchun yo'llar izlab,  
Yuraklar tosh qotib, ko'zlar kular ekan.  
Izlaganlar imkon topar deydilar lek,  
Peshonaga yozilgani bo'lar ekan...

Hayotdir bu, siz o'ylagan xayol boshqa,  
Umr ham bir zumda o'tar ketar ekan.  
Taqdirdan ko'p nolimang, hech kuyib yurmang,  
Peshonaga yozilgani bo'lar ekan...



## **Yaqindir ayriliq**

Yaqindir ayriliq, yaqindir firoq,  
Ajrilib bo'lganmiz hatto baxtdan ham,  
Xulosa chiqarib ololmadik hech,  
O'tib ketayotgan tezkor vaqtdan ham...

Yaqindir ayriliq, yaqindir firoq,  
Men sendan mutloq ko'z yumib bo'lganman,  
Izlama, sevgimni topa olmaysan,  
Yuragim tubiga ko'mib bo'lganman...





## **Meni eslab...**

Meni eslab-eslab yig'laysan hali,  
Mendan yaxshisini topolmagan chog'.  
Yonimga qaytmoqni istaysan, ammo,  
Ul kun sochlarimga qo'ngan bo'lar oq.

Taqdirga tan berib anglaysan bir kun,  
Yuragingga qo'ngan darddir o'sha dog'.  
Mendan kechmoq uchun bahonalar ko'p  
Qaytmoqlikka imkon topilmas biroq.

Kim uchun yonasan olovdek porlab,  
Seni deb yashagan yuragimga boq,  
O'zgani o'ylama, men sen bilan man  
Bir kun sochlaringga qo'nsa ham-ki oq...



## **Afsus**

Muhabbat yo'l berdi, kirdim qalbingga,  
Taqdir yor qilmasa, endi netaman?  
Chin edi, bilmading axir bu sevgim,  
Endi yuragingdan chiqib ketaman.

Axtarma, men ketgach, qayga ketdi deb  
Yuragim sen uchun urib netadi?  
U seni qarg'aydi kechayu kunduz,  
Balki kelar deya seni kutadi.

Bu yurak so'zimga kirmayin qo'ydi  
Afsus o'zga dillar jabridan to'ydi.  
Aytgin-chi, endi tinch uradi qanday?  
Hayotda bir bora adashdi, suydi...



## **Yodingdami?**

Yodingdami, baxtdan yonib yulduzdek,  
Sevgi osmonida uchganlarimiz?  
Kelajak haqida orzular qilib  
O'y va xayollarga cho'mganlarimiz.

Yodingdami, o'sha oy to'lgan kecha,  
Sen-la men va yana... sevgi bor edi.  
Muhabbat, sadoqat, ishonch barchasi  
Bizning baxtimizdan umidvor edi.

Yodingdami, suhbat qurib shomgacha  
Xiyobonlar kezib hech tolmas edik,  
Menda sen, senda men, bizda orzular  
Bir kun, ajralmoqni his qilmas edik.

Yodingdami, o'sha zulmat cho'kkan kun  
O'z qo'ling-la baxtga xanjar urganing?  
Kelding, tamom deding, ishqimiz bitdi,  
Lahzada umringa nuqta qo'yganing...

Yodimdadir hamon, unutilmayman,  
Xotiralar dilni ezaveradi,  
Toshkent ko'chalari chertib xayolni,  
Har gal seni esga solaveradi.



## **Endi muhim emas**

Endi muhim emas, o'tgan kunlarim,  
Boshida yig'ladik, so'ngida kuldik.  
Barchasi tugadi, yakuni go'zal  
Muhimi sevildik, muhimi sevdik...

Endi muhim emas, dardlar, ko'z yoshlar  
Hayotni angladik, sevgini bildik,  
Afsusda yonmaymiz, endi hech qachon  
Muhimi sevildik, muhimi sevdik...

Endi muhim emas, kelajak qanday?  
So'ngi yo'l, Ollohga tavakkal qildik.  
Biz hech kecholmadik, kechilmadik ham,  
Muhimi sevildik, muhimi sevdik.



\*\*\*

Endi men, seni deb yig'lamay qo'ydim,  
Poyoniga yetdi bizning sevgimiz.  
Hamma orzu qilgan baxtli juft yedik,  
Bir yo'lni ikkiga bo'ldik ikkimiz.

Sendan ko'p xatolar o'tdi, tan olgin,  
Qalbinni ming bo'lak qilib tolmading.  
Ko'z yoshlar tinmadi, kecha-yu kunduz,  
Hatto holimdan bir xabar olmading.

Taqdir, deding, oson ko'nib so'ngida,  
Bilmam, bu taqdirga qandayin ko'nding,  
Meni azoblaydi, qiynaydi dardlar,  
Armonga aylangan, orzuyim bo'lding.



## **Endi qaytmayman**

Men endi qaytmayman, kutmagin, yetar.

Sevgimga ortiq qul bo'la olmayman,  
Sevilmay sevishdan charchadi yurak  
Sohta muhabbatga ishonolmayman.

Men endi qaytmayman, kutmagin, yetar,

Holi ne kechdi deb g'amimni yema.  
Ketishim xohlading, endi ming nolib,  
Sevgi muhabbatni gunohkor dema!

Men endi qaytmayman, kutmagin, yetar...



## **Menga baxtni ko'rsat**

Menga baxtni ko'rsat, ayt, u qay yerda,  
Makoniga boray, dardlardan qochib.  
G'amlarimdan ortiq sevsin ardog'lab,  
Meni qarshi olsin, quchog'in ochib.

Menga baxtni ko'rsat, ayt u qay yerda,  
Ahir haqqim bordur, uni ko'rishga,  
Armonlardan kechay, kechay baridan!  
Shu onda mushtoqman, baxtli bo'lishga...



## **Yurak**

Ayriliqqa ko'nib, taqdir ekan deb  
Ketding, yig'lab qoldi, sensiz bu yurak.  
So'ng boshqa yurakning mehmoni bo'lding  
Afsus, yuraginga xo'p eding kerak!

Tunlari og'rinar, seni sog'inib,  
So'zlarim tinglamas, sho'rlik bu yurak,  
Ko'nghim sezayapti, yillar o'tsa ham  
Faqat seni kutib yashasa kerak!





## **O'lgan hislar**

Bozoriga bordim o'lgan hislarning,  
Yig'i-yu, faryoddan hayratda qotdim.  
Sendan qolganlardan, halos bo'lay deb  
Narxlab ham o'tirmay, boriga sotdim.

Sevgi, muhabbat-u, xotiralarning  
Qadr qimmatlari, yer bo'lib ketgan.  
Avval ikki yurak bir-la e'zozlab,  
So'ngra yarim qolib, keltirib otgan.

Hayratdan yoqamni ushlab, so'zsizman,  
Javobsiz savollar tinmay so'roqlar,  
Hislar bozoridan qaytayotirman...  
Yigirma yoshimda sochimda oqlar.

Sendan ranjimayman, o'tgan ish o'tdi,  
Yozilgan ekan-da, so'ng biz kuylagan...  
Seni menga, taqdir to'qnash keltirib  
Qora sochlarimni oqqa bo'yagan.



## **Shoir va kapalak**

Yana to'rt devor-u, bir daftar qalam...  
Shoir xayollarga bermoqdadir zeb,  
Bir kapalak qo'ndi tokchaga shu dam:  
"Yaxshisi men haqda she'r yoza qol...", deb.

Shoir mayus boqib kapalakka der:  
"Men bir sirdoshga zor, do'stga zor edim,  
Kel, silay qanoting, senga atay she'r  
Sen meni hayotga qaytarding!", dedi.

Kapalak jilmaydi bosh egib, mayus:  
"Men, axir, senga do'st bo'lolmayman-ku!  
Bugun yoningdaman, ertaga afsus,  
Uyquga keturman, uyquga mangu!"

Shoir qarab turar ko'zlarida nam,  
Kapalakni o'par zor yig'lagancha.  
"Oh, sen kapalagim, deding, ketaman...  
Ketishin aytmasdan ketganlar qancha..."



## **Mundarija**

<b>She'r quvonchi .....</b>	<b>3</b>
<b>O'zbekistonim .....</b>	<b>4</b>
<b>Shukrona.....</b>	<b>5</b>
<b>Ona tilim.....</b>	<b>6</b>
<b>Bir kun .....</b>	<b>7</b>
<b>Men faqat Allohni sevarman.....</b>	<b>8</b>
<b>Sinfdoshlarim.....</b>	<b>9</b>
<b>Qog'oz ila she'r.....</b>	<b>10</b>
<b>Ota .....</b>	<b>11</b>
<b>Allohim yig'latma .....</b>	<b>12</b>
<b>Onam.....</b>	<b>13</b>
<b>Iqror.....</b>	<b>14</b>
<b>Ko'zlarimdan ko'z yoshlarim tinmayapti .....</b>	<b>15</b>
<b>Do'st kechib ketsa .....</b>	<b>16</b>
<b>Ishonmadim muhabbatga men .....</b>	<b>17</b>
<b>Soxta do'stlar .....</b>	<b>18</b>
<b>Sevgi-yu muhabbat menga begona .....</b>	<b>19</b>
<b>Yo'qotganlarim .....</b>	<b>20</b>
<b>Vaqt .....</b>	<b>21</b>
<b>Boshim egib... ..</b>	<b>22</b>
<b>Sevgi... ..</b>	<b>23</b>
<b>Yolg'on dunyo .....</b>	<b>24</b>
<b>Bir kuni.....</b>	<b>25</b>
<b>Shoir qalbi .....</b>	<b>26</b>
<b>Boshqani sevmadim, seni unutdim.....</b>	<b>27</b>
<b>Kuz kelgach .....</b>	<b>28</b>
<b>Tor kabi nozikdir mening bu ko'nglim, .....</b>	<b>29</b>
<b>Yurak seni intizor kutdi.....</b>	<b>30</b>



<b>Qalbim so'lmoqdasan bugun gul kabi .....</b>	<b>31</b>
<b>Maktub.....</b>	<b>32</b>
<b>Bugun seni eslagan yuragimni qarg'ayman, .....</b>	<b>33</b>
<b>Unutolmadim .....</b>	<b>34</b>
<b>Ba'zan .....</b>	<b>35</b>
<b>Ne uchun?.....</b>	<b>36</b>
<b>Muhabbat qalbinga solib qo'ydi cho'g' .....</b>	<b>37</b>
<b>Sen bir kun.....</b>	<b>38</b>
<b>Senga aytadigan so'zim qolmadi.....</b>	<b>39</b>
<b>Hayotim boshqacha shu kunda.....</b>	<b>40</b>
<b>Yetar.....</b>	<b>41</b>
<b>Kimni sevarding? .....</b>	<b>42</b>
<b>Xazon bo'lmay izg'irinda qolgan barglar .....</b>	<b>43</b>
<b>Tanho qolsam .....</b>	<b>44</b>
<b>Inson tushunmaydi insonni .....</b>	<b>45</b>
<b>Peshonada yozilgani bo'lar ekan.....</b>	<b>46</b>
<b>Yaqindir ayriliq .....</b>	<b>47</b>
<b>Meni eslab .....</b>	<b>48</b>
<b>Afsus.....</b>	<b>49</b>
<b>Yodingdami?.....</b>	<b>50</b>
<b>Endi muhim emas .....</b>	<b>51</b>
<b>Endi men, seni deb yig'lamay qo'ydim .....</b>	<b>52</b>
<b>Endi qaytmayman .....</b>	<b>53</b>
<b>Menga baxtni ko'rsat.....</b>	<b>54</b>
<b>Yurak .....</b>	<b>55</b>
<b>O'lgan hislar .....</b>	<b>56</b>
<b>Shoir va kapalak.....</b>	<b>57</b>



*Dilorom Tursunova. MEN BAXTLI BO'LAMAN*

*Dilorom Tursunova. MEN BAXTLI BO'LAMAN. She'rlar. T.: 2023. TDSHU.*

DILOROM TURSUNOVA

## **MEN BAXTLI BO'LAMAN**

She'rlar

**Mas'ul muharrir:**

***Muhammad Ali***

*O'zbekiston xalq yozuvchisi*

**Taqrizchi:**

***Adhambek Alimbekov***

*F.f.n., professor*

Bosishga ruxsat etildi: 12.12.2023

Bichimi 60x84 1/16 Shartli 3,75 b.t.

50 nusxada bosildi. Buyurtma №

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining  
kichik bosmaxonasi.

Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20 uy.

©Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. 2023-y.

*MEN  
BAXTLI  
BO'LAMAN*

DILOROM TURSUNOVA

She'rlar

Dilorom Tursunova Nutfillo qizi 2002- yil 17- mayda Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida tug'ilgan. 2009-2019-yillarda G'ijduvon tumanidagi 2-sonli maktabida tahsil olgan. Hozirda Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti Xalqaro jurnalistika yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

Yoshlik chog'idan ijodga mehr qo'yib, qalbi she'riyatga oshno bo'lgan yosh shoironing she'rlari respublikamizning ko'plab gazeta jurnallaridan joy olgan.

Ijodkorning "YULDUZLARNI QUCHGIM KELADI" nomli she'riy to'plami nashr etilgan (2019).

O'nga yaqin ijodiy ishlari xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Universitetda o'tkazilgan "Yil talabasi- 2022" tanlovining,

"Yilning eng faol ijodkor talabasi" yo'nalishi g'olibi.

Samandar Hamroqulov boshchiligida tashkil etilgan –"SR speech academy" bitiruvchisi.

